

BOLA TARBIYASIGA OID HIKMATLI SOʻZLAR LEKSIK-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI

Avliyoqulova Rohila Nurali qizi

Master's student of Termiz State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15479536>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va oʻzbek tillarida bola tarbiyasiga oid hikmatli soʻzlarni leksik-semantik xususiyatlarini chogʻishtirma tadqiq qilishga bagʻishlangan. Maqolaning asosiy maqsadi – ingliz va oʻzbek tillarida bola tarbiyasiga oid hikmatli soʻzlarni oʻrganish, ularning leksik-semantik va lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishdir va unda hikmatli soʻzlar, til va madaniyat oʻrtasidagi aloqalar, shuningdek, buyuk shaxslar nutqidagi hikmatli soʻzlar oʻrganilib, ular orasidagi oʻxshashlik va farqlar chuqur tahlil qilingan. Maqolada qoʻllanilgan metodologik yondashuvlar orasida leksik-semantik tahlil, qiyosiy-chogʻishtirma tahlili usullari mavjud, ingliz va oʻzbek tillarida bola tarbiyasiga oid hikmatli soʻzlarning oʻziga xos leksik-semantik va lingvistik xususiyatlarini ochib berish bilan birga, ikki til oʻrtasidagi farqlar va oʻxshashliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

Kalit soʻzlar: hikmatli soʻzlar, oʻzbek madaniyati, ideomalar, milliy, frazeologik birliklar, lugʻatlar, lingvistik, ekvivalent, metod.

KIRISH

Jahon tilshunosligida hikmatli soʻzlarning nutqqa tegishli boʻlgan jihatlarini ochib berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Xususan, hikmatli soʻzlar va ularning oʻrganilish tarixi, ularning lingvistik xususiyatlari, hikmatli soʻzlarning srtukturaviy va semantik xususiyatlari va aynan bola tarbiyasida qoʻllaniladigan jihatlarini tadqiq etish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda¹. Zamonaviy tilshunoslikda milliy tafakkur, madaniyat va ijtimoiy ongning til vositasida aks etishi masalalari alohida ilmiy eʼtibor markazida turibdi. Xususan, hikmatli soʻzlar — maqollar, aforizmlar va iboralar xalqning tarixiy tajribasi, maʼnaviy-axloqiy qarashlari, tarbiya tizimi hamda ijtimoiy qadriyatlarini mujassamlashtirgan lingvokulturologik birliklar hisoblanadi². Bu turdagi birliklar tahlili orqali nafaqat tilning ichki tuzilishi, balki xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy-maʼnaviy ideallari, shuningdek, bola tarbiyasiga oid qarashlari haqida chuqur xulosalar chiqarish mumkin.

¹ “Hikmatli soʻzlar” OʻzME. H-harfi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

² Abdullaeva N. Maqollar va matallarda axloqiy tarbiyaning ifodalanishi. — Samarqand: Samarqand DU, 2015. — B. 21.

Tilshunoslikda hikmatli soʻzlarning ingliz va oʻzbek tillarda oʻrganilish tarixi, ularning strukturaviy tahlili, maqol va aforizmlarda kelishi oʻrganiladi.

Ingliz va oʻzbek tillaridagi bola tarbiyasida qoʻllaniladigan hikmatli soʻzlarni tahlil qilish orqali qanday leksik va stilistik usullardan foydalanish va ikkala tilning aforizmlarida qanday umumiy va oʻziga xos tuzilmaviy elementlar mavjudligini oʻrganish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, aforizmlarning semantik mazmuni va ularning madaniy ifodasini maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarni tahlil qilish orqali oʻrganish va ularni samarali tarjima qilish uchun ishlatiladigan strategiyalarni aniqlash va farqli va oʻxshash ekanligini aniqlashdan iborat³. Masalan, “Mehnatning mevasi shirin boʻladi” degan hikmat mehnatning ahamiyatini eslatadi. Hikmatli soʻzlar koʻpincha boshqa insonlarni oʻylantirish, ularga toʻgʻri yoʻl koʻrsatish maqsadida aytiladi. Ular har qanday davr va avlod uchun oʻz dolzarbligini yoʻqotmaydi. Bu soʻzlar orqali odamlarga toʻgʻrilik, halollik, sabr, minnatdorchilik, kamtarlik kabi fazilatlarining ahamiyati eslatiladi⁴. Ingliz tilidagi aforizmlar esa koʻproq murakkab gap shaklida kelib, sintaktik jihatdan toʻliq, koʻp hollarda predikatli struktura bilan ajralib turadi⁵. Masalan: “Children are the wealth of the nation”⁶ strukturaviy jihatdan **ot + feʼl + ot + bogʻlovchi + ot** koʻrinishida boʻlib, bunda mavzu va xulosa toʻliq bayon qilingan. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, har ikkala tilda ham bola tarbiyasiga oid hikmatli soʻzlar axloqiy, tarbiyaviy va ijtimoiy qadriyatlarni ifoda etishda kuchli vosita boʻlib xizmat qiladi. Masalan, *Bola ota koʻzgusi*. Tuzilishi: **ot + ot + ot**. Maʼnosi: Bola oʻz ota-onasining aksidir, ularning odatlarini oʻzida aks ettiradi⁷;

Bolalarni tarbiyalashda aforizmlar donolik, axloqiy qadriyatlar va amaliy hayot saboqlarini berish uchun ixcham, taʼsirli bayonotlar yoki iboralardan foydalanish gʻoyasiga asoslanadi. Aforizmlar umuminsoniy haqiqatlar yoki tamoyillarni qamrab oluvchi qisqa, esda qolarli iboralardir. Bolalar tarbiyasiga tatbiq etilganda, ular xulq-atvorni yoʻnaltirish, xarakterni shakllantirish va qadriyatlarni bolalar tomonidan oson tushuniladigan va saqlab qoladigan tarzda oʻrgatish uchun vosita boʻlib xizmat qiladi. Hikmatli soʻz oʻrganishning cheksizligini va insonning doimiy ravishda yangi bilimlar olishga intilish zarurligini tushuntiradi. Bu insonning hayotdagi muvaffaqiyatga erishishi va rivojlanishi uchun muhimdir.

³ Abu Nasr Forobiy. Axloqiy risolalar. — T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2002

⁴ **African Proverbs, Sayings and Stories** / compiled by G. M. Ajayi. — Nairobi: African Heritage Publishers, 2002. — 143 p.

⁵ Abdurahmonov X. *Oʻzbek xalq maqollari: lingvistik tahlil*. — T.: Fan, 2005. — B. 15-17.

⁶ Cordoba J.C. *Children and the Wealth of Nations*. Society for Economic Dynamics. 2012.

⁷ Alibekova K.E. *Maqollar va matallar: semantik va stilistik tahlil*. — T.: Fan va texnologiya, 2009. — B. 34-36.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Hikmatli soʻzlar” OʻzME. H-harfi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Abdullaeva N. Maqollar va matallarda axloqiy tarbiyaning ifodalanishi. — Samarqand: Samarqand DU, 2015. — B. 21.
3. Abdurahmonov X. *Oʻzbek xalq maqollari: lingvistik tahlil*. — T.: Fan, 2005. — B. 15-17.
4. Abu Nasr Forobiy. Axloqiy risolalar. — T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2002.
5. **African Proverbs, Sayings and Stories** / compiled by G. M. Ajayi. — Nairobi: African Heritage Publishers, 2002. — 143 p.
6. Alibekova K.E. *Maqollar va matallar: semantik va stilistik tahlil*. — T.: Fan va texnologiya, 2009. — B. 34-36.
7. Cordoba J.C. Children and the Wealth of Nations. Society for Economic Dynamics. 2012.